

MA'NAVIY TARBIYA YUJSAK MA'NAVIYATNI TARBIYALASH VOSITASI

Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti Tarix va filologiya kafedrasi o'qituvchisi,

rahmonovasanoatshuhratqizi@oxu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14889349>

Annotatsiya. Inson kamolotida ma'naviy tarbiyaning o'rni benihoya yuksak bo'lib kishilik jamiyatida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'z: Ma'naviy tarbiya, barkamol avlod, islohot, siyosat, internet, pedagogika, moddiy va ma'naviy boyliklar, axborotdan foydalanish.

SPIRITUAL EDUCATION IS A MEANS OF CULTIVATING HIGH SPIRITUALITY

Abstract. The role of spiritual education in human development is extremely high and is an important factor in the formation of moral qualities in human society.

Keywords: Spiritual education, harmonious generation, reform, politics, Internet, pedagogy, material and spiritual wealth, use of information.

ДУХОВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ — ЭТО СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ВЫСОКОЙ ДУХОВНОСТИ.

Аннотация. Роль духовного воспитания в развитии человека чрезвычайно велика и является важным фактором формирования нравственных качеств в человеческом обществе.

Ключевые слова: Духовное воспитание, гармоничное поколение, реформа, политика, Интернет, педагогика, материальные и духовные блага, использование информации.

Ma'naviy tarbiya yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi bo'lib muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha.

Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimgi va abadiy qadriyatdir.

Yurtboshimiz ta'kidlanganidek, ma'naviy tarbiya masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat'iyat va mas'uliyat yo'qotilsa, bu o'ta muhim ish o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan minglab yillik milliy-etnik asoslarga ega millat ma'naviyati va tarixiy xotirasidan ayrılib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishi mumkin. O'zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy

qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan. Chunki, ertaga kattalar o'rmini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdirdagina komil insonlar bo'lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma'naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar ma'naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi. Ma'naviy tarbiya atamasi keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda ma'naviy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqa faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi ma'naviy tarbiya tushunchasi tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, ma'naviy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunday ma'naviy tarbiya oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi. Har qanday ma'naviy tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifikat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar.

Ma'naviy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki uning o'sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o'z ajdodlaridan yuqori darajaga ko'tarilmog'i darkor. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida ma'naviy tarbiya turlicha izohlab kelingan. Sobiq ittifoq davrida hukmron mafkura ma'naviy tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan, bu jarayonda milliy xususiyatlar dyeyarli hisobga olinmagan edi. O'zbekiston istiqlolga erishgach, ma'naviy tarbiyaga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladи. Uni izohlashda g'ayri ilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Ma'naviy tarbiyaning milliy va umuminsoniy asoslariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bugungi O'zbekiston uchun umummilliyl, umum davlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik va qat'iylik bilan davom ettirish mazkur sohadagi asosiy mezonga aylandi. Bu borada jamiyatni doimiy harakatga keltirib turadigan kuch – milliy g'oya, milliy manfaatga xizmat qiladigan qadriyatlarni, ilg'or demokratik qoida va tushunchalarni aniq-ravshan tasavvur etish, ularni

o‘rganish, borini asrab-avaylash, boyitish, rivojlantirish, xalqni, avvalo, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ana shu bilim va ko‘nikmalar bilan tarbiyalash – ma’naviy tarbiya sohasidagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Masalaning bu tarzda qo‘yilishining asosiy sababi shundaki, bugungi yoshlar nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio, TV, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqdalar. Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan sharoitda, bolalar, yoshlar ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ular atrofini axborot davrida temir devor bilan o‘rab olish, zamon talabiga, jamiyat maqsad-muddaolariga ham to‘g‘ri kelmaydi. Demak, yoshlarni ma’naviy jihatdan shunday tarbiyalash lozimki, ular Internet – axborot bozoriga kirganda faqat o‘zi, el-yurti uchun zarur, foydali, ma’naviy asoslarga daxl qilmaydigan narsani olsin. Yoshlarga Internetdan, axborotdan foydalanish, axborot iste’moli madaniyatini o‘rgatishda dunyoning qaysi burchagidan qanday ma’lumot kelmasin, qanday ma’naviy tajovuz tahdid solmasin, har qanday holatda ham ma’naviy-ruhiy jihatdan ogoh va hushyor, turli axboriy xurujlardan o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymaydigan barkamol shaxslarni shakllantirish bu sohadagi ma’naviy tarbiyaning asosiy mezoni bo‘lmog‘i lozim. Shu boisdan ham o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy tarbiyasiga javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi doimo oila, mahalla, mакtab va ta’lim muassasalari, umuman, barchaning diqqat-markazida turmog‘i lozim. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalashda zamonaviy medisina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har bir oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-onas, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko‘rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklarni ta’minlashi borasida o‘zining mas’ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim. Istiqlol yillarida kamdan-kam mamlakatda mavjud bo‘lgan noyob idora – mahalla ham milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashda, yoshlarning ma’naviy tarbiyasi va ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Dunyoning pastu balandini ko‘rgan mahalla oqsoqollari, kayvoni onaxonlar o‘zlarining hayot tajribasi bilan yoshlarga ma’naviy tarbiya va saboq berib, xalq an’analari davomiyligini asrab-avaylab kelayotgani ibratlidir. Bunda mahallaga xos hayot tarzi va turmush madaniyati, qo‘ni-qo‘shni va mahallako‘y o‘rtasidagi munosabatlarning ta’siri katta. Xullas, ma’naviy tarbiyaning qirralari juda ko‘p. Ma’naviy tarbiyada milliy g‘oya, milliy g‘ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajodolr tavallud sanalarini nishonlash ham ma’naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o‘tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlarni asosida tarbiyalanadi, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o‘tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g‘ururlanish tuyg‘ulari singdiriladi.

Umuman olganda, ma'naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni, soxta aqidalar, vayronkor g'oyalar va ma'naviy tajovuzlar bilan buzish qiyin. Ularni o'zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan chalg'itib ham bo'lmaydi.

Hozirgi davrda ma'naviy tarbiya yo'nalishida mamlakat oldida turgan muhim vazifalarni bajarish, el-yurtga fidoyi va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar, chuqur bilimli va ma'nan barkamol shaxslarni tarbiyalash bu borada xizmat qiladigan ziyoli va xizmatchilar, o'qituvchilar va mutaxassislar, umuman, barcha ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlarining muqaddas burchiga aylandi.

REFERENCES

- ахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 366-375.
2. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(8), 160-172.
 3. Rahmonova, S. S. Q. (2024). O 'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN MA'NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR DINAMIKASI VA ASOSIY YO 'NALISHLARI. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 95-104.
 4. Rahmonova, S. (2024). SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS ARE THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 3(12), 517–525. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58031>
 5. Xayrullayev , U., Sayfutdinov , F., & Rahmonova , S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. Modern Science and Research, 4(1), 147–154. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60142>
 6. Rahmonova, S. . (2025). IJTIMOIY BEGONALASHUVNING OLDINI OLISHDA MA'NAVİY-MARIFIY ISLOHOTLARNING O'RNI. Modern Science and Research, 4(1), 428–435. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60835>
 7. Rahmonova, S., & Yo'ldasheva, M. (2025). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Modern Science and Research, 4(1), 367–374. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63683>

8. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
9. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
10. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
11. Ozodlik va mustaqillik g‘oyalarini, A. O ‘RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO ‘LGAN “TURKISTON MUXTORIYATI” Haqqulov Mehriddin Yunusovich.
12. Azizovich, G. A., Vahobovna, S. G., & Haqqulov, M. Y. O ‘RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI.
13. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
14. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
15. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
16. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
17. Yunus ogli, H. M. (2023). QADIMGI MESOPOTAMIYA SHAHAR-DAVLATLARI O’RTASIDAGI O’ZARO MUNOSABATLAR.
18. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071-1073.
19. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE " RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568-572.
20. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179-183.
21. Xayrullayev, U. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION.
22. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSİYASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 843-851.

23. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HOKIMLIKARINING MAVQEYI. *Modern Science and Research*, 3(12), 339-343.
24. Xayrullayev, U., Sayfutdinov, F., & Rahmonova, S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 4(1), 147-154.
25. Xayrullayev, U. (2025). BUXORO VILOYATINING IQTISODIY HOLATI (1990-1991 YILLAR). *Modern Science and Research*, 4(1), 1018-1024.
26. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
27. Xayrullayev, U. F. (2023). 1918-1939 YILLARDA POLSHANING ICHKI SIYOSATIDAGI O 'ZGARISHLAR. SCHOLAR, 1(28), 337-340.
28. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
29. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
30. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
31. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
32. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
33. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
34. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
35. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
36. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
37. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.

38. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
39. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
40. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
41. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV–O’RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
42. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
43. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
44. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
45. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
46. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 655-659.
47. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
48. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
49. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
50. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
51. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
52. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.

53. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
54. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
55. Toshpo'latova, S., & Hoshimova, M. (2025). BERUNIY VA UNING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 344-351.
56. Toshpo'latova, S. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 643-651.
57. Yuldosheva, F. . (2024). MIRZO ULUG'BEK KUTUBXONASI VA BUGUNGI TAQDIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 741-749. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/>
58. Yuldosheva , F. . (2024). BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR O'ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(11), 788-791. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48058>
59. Yuldosheva , F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING "QADIMGI TURKLAR" ASARIDA KO'KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338-342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/>
60. Yuldosheva , F. . (2025). MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – MILLATNING O'Z TAQDIRINI ANGLASHIDA YORQIN YULDUZ VA MILLIY UYG'ONISH DAVRINING RAMZI. *Modern Science and Research*, 4(1), 420-427. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60832>